

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
TURIZM VA SPORT VAZIRLIGI**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO'YICHA MUTAXASSISLARNI  
QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**OT SPORTI**  
**turlariga oid tushuncha va atamalar**  
**izohli lug'ati**



**Toshkent – 2021**

## **Annotatsiya**

Ushbu ot sport turlariga oid izohli lug‘atning chop etilishi mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportga oid bilimlarni yanada mustahkamlash, o‘zbek tilining yanada boyishiga va rivojlanishiga yordam beradi.

Qo‘llanma talaba-yoshlarga, o‘smlarga va yosh jismoniy tarbiya o‘qituvchi - murabbiylar uchun yaratilgan.

### **Tuzuvchilar:**

**B.I.Ne’matov** - Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti “Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati” kafedrasi dotsent v.b., p.f.b.f.d (PhD)

**S.U.Nazarov** Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti “Sport boshqaruvi” kafedrasi dotsent v.b.,

### **Taqrizchilar:**

**A.N.Abdiev** O‘zDJTSU “Boks, taekvondo, qilichbozlik nazariyasi va uslubiyoti” kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori

**O.S.Jumanov** - Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta’minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi “Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati” kafedrasi mudiri, p.f.n., dotsent

Ushbu izohli lug‘at Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Ilmiy-metodik kengashida muhokama etilgan va nashrga tavsiya etilgan. (2021-yil 2-iyun, 6-sonli bayonnoma)

## **KIRISH**

Bugun O‘zbekistonimiz «Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari» degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning yangi, yanada yuksak bosqichiga ko‘tarilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o‘rni va nufuzi tobora oshib bormoqda.

Qo‘lingizdagagi ushbu ensiklopedik xarakterdagagi izohli lug‘at ot sport turlariga doir tushuncha yoki atamalar ta’rifi (difinitsiya), tushuntirishlar, zarur hollarda esa etimologik ma’lumot, sport anjomlari, jihozlari, qonun, qoida va boshqalar, ularning vazifasi yoki qo‘llanilish sohalari qisqacha berilgan. Mazkur izohli lug‘atdan asosiy maqsad kichik hajmdagi maqolalar yordamida keng kitobxonlar ommasining shu masalalarni bilib olishga bo‘lgan ehtiyojilarini ma’lum darajada qondirishdir.

O‘zbek tilida birinchi marta nashr qilinayotgan ushbu izohli lug‘at “Ensiklopedicheskiy slovar yunogo sportsmena”, Sosnovskiy I.Yu., Chaykovskiy A.M. tahriri ostida, Moskva, 1980 y.; “Fizkultura i sport. Malaya Ensiklopediya”, Kudin A.N., tahriri ostida, Moskva, 1982 y.; Ruscha – o‘zbekcha o‘quv lug‘ati, Aliqulov T., tahriri ostida, Moskva, 1982 y.; Elektronnye slovari Lug‘at Versiya 3.0 Copyright (C) 1998-2003 SPELLS, Ltd.; Internet tarmog‘i. “Material iz Vikipedii – svobodnoy ensiklopedii”; “Bolshoy Ensiklopedicheskiy slovar” so‘zliklaridan foydalanildi.

Lug‘atga asosan, qishki sport turlari, fan va sportda amalda keng qo‘llanilayotgan 300 dan ortiq tushuncha va atamalariga oid muhim maqolalar kiritildi. Lug‘atda 20 dan ortiq atamalarga rasm va chizmalar berildi. Tushuncha va atamalarning o‘zbekcha ekvivalentini qabul qilishda o‘zbek tilida nashr etilgan tabiiy fanlarga oid adabiyotlardan, O‘zbekiston Ensiklopediyasidan foydalanildi. Ba’zi atamalarning ruscha ekvivalenti qavs ichida berildi.

Ushbu ot sport turlariga oid izohli lug‘atining chop etilishi mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportga oid bilimlarni yanada mustahkamlash, o‘zbek tilining yanada boyishiga va rivojlanishiga yordam beradi.

Lug‘atni tuzishda Salomov R.S., Abdiyev A.N., Kerimov F.A., Xonkeldiyev Sh.X., Xadjayev P., Matkarimov R.M., Ruziyev A.A., (jismoniy tarbiya va sportga doir so‘zlar), Mirboboyev M.A., Mirzoyev R.O., Olovuddinov A.V., Turdiyev N.Sh., Rashidov T.R., Fozilov T, Inog‘omov E., Rasulova U., Sirojiddinova D., Sulaymonov S. (texnika, fizika-matematika va ximiyaga doir so‘zlar) va boshqa yetakchi mutaxassislar ishlariga tayanildi.

Lug‘atdagi maqolalar ensiklopedik tarzda alfavit tartibida joylashtirilgan. Har qaysi maqolaning nomi katta qora harflar bilan berilgan.

Ot sport turlariga oid izohli lug‘at mualliflari o‘rtaga tashlanayotgan maqolalarni mutlaqo to‘g‘ri va eng haqqoniy deb da’vo qilish fikridan yiroq. Shuning uchun ham shu lug‘atdan foydalanuvchilarga murojaat qilib, izohli lug‘atga doir o‘zlarining hamma istak va fikrlarini mamnuniyat bilan qabul qiladi. ([www.bobirbek79@mail.ru](http://www.bobirbek79@mail.ru)).

<b>O'ZBEK KIRIL</b>							
<b>ALIFBOSI</b>							
A	B	V	G	D	Ye	Yo	
J	Z	I	Y	K	L	M	
N	O	P	R	S	T	U	
F	X	S	Ch	Sh	'	E	
Yu	Ya	G'	Q	O'		H	


### **QISQARTIRMA VA SHARTLI BELGILAR**

a. - asr	s – santi ( $10^{-2}$ ni bildiruvchi old
<i>biol.</i> – biologiya	ko'shimcha), soniya
b-n – b-n	sm - santimetр
b. – boshqalar	<i>sport.</i> – sportda
daq - daqiqa	<i>tex</i> - texnika
diam. – diametr	<i>tib.</i> – tibbiyot
<i>inf.</i> – informatika	turk. - turkmancha
y. – yil	u-n – uchun
kg - kilogramm	<i>fiziol.</i> – fiziologiya
km - kilometr	er. av.- eramizdan avvalgi
lot. – lotincha	er. ol. – eramizdan oldin
m – milli ( $10^3$ ni bildiruvchi old	yun. – yunoncha
qo'shimcha) metr	q. – qarang
mas. – masalan	<i>harb.</i> – harbiy atama
	h.k. – haka kazo

# A


**AZIL** (arab. asil - zotdor, salobatli) - kelib chiqishi nasldor, bebaho zotdor arab oti.

**ALLYURALAR** (allyuri) (frans. allure – qadam tashlash), otning biror xil yurishi (yo‘rg‘alash, lo‘killash yoki chopish va h.k.). Ta’biy A. – qadamlar, yo‘rtish, yo‘rg‘alash, sakrab chopish, sakrashlardan to‘g‘ri foydalanish otning ish qobiliyatini saqlashga yordam beradi. Sun’iy A. – tantanavor qadam, passaj, pyaf, piruet ot sporti va sirk san’atida qo‘llaniladi. Rasmga q.



**A. otning yurishi xillari**

**AMERIKANKA** - 1. Yo‘rtoqi otlarning yugurish yo‘llarida sinovlar uchun katta g‘ildirakli (radiusi taxminan 1,5 m) Amerikada ixtiro qilingan qadimdan (qadimgi zamondan) qolgan ikki g‘ildirakli arava. 2. Ikki g‘ildirakli poyga aravasining avvalgi nomi. Rasmga q.




### Amerikankada yo‘rtoqi ot sinovi

**AMSTERDAM EShIKChASI** (amsterdamskaya kalitka) – ot sportida to‘siq turi. Birinchi marta 1928 y. Amsterdamda bo‘lib o‘tgan Olimpiyada o‘yinlarida qo‘llanilgan.

**AMUNITSIYA** (polyak. amunicja, lot. munitio - mustahkamlash, jihozlash), harbiy hizmatchilar o‘q-dorilarini, qurol-aslahalarini olib yurishlarini yengillashtirish jihozlari (tasmalar, sumkalar va b.); Rossiya Armiyasida harbiy jihoz deb ataladi. Ot amunitsiyasi – abzallash, egarlash va hayvonni yuk ortish jihozlari.

**ATAVIZM** (yunon. atavus - ajdodlar) - uzoq ajdodlarida mavjud bo‘lgan va evolyusiya jarayonida g‘oyib bo‘lgan hayvonlar belgilaridagi ko‘rinish.


**ARCHAK** (шера) – ensiz (qirqilgan) taxtachalar - qadimgi kazaklar egarining asosi. Ba’zida uni egarining qoshi po‘latdan iborat. Rasmga q.



## **Kazaklar egaraga archak**

**a- po'latdan tayyorlangan egar qoshi. b - yog'ochdan tayyorlangan egar qoshi**

**AXALTEKINSK OT ZOTI** (axaltekinskaya poroda) - eng qadimi miniladigan otlar zoti. Neseys va to'g'ridan-to'g'ri parfiya otlari b-n chatishgan eng qadimi antik davridagi miniladigan otlar zoti. A.o.z.ning vatani Axal vohasining Kopet-Dag shimoliy tog' oldida joylashgan (Turkmaniston hududi), Teke turkman qabilasi yashagan joylar hisoblanadi. Odatda otlar juda katta (yag'rigacha balandligi 155-160 sm), tanasi ingichkaligi, maxsus nafisligi va bejirimligi bilan ajralib turadi. Ular baland oyoqli, ingichka, ammo kuchli gavda suyaklariga ega. 1935 yilda Ashxobod - Moskva ot poygasida ishtirok etib 84 kun ichida 4300 km yo'l bosib o'tgan. Klassik ot sport turlarida muvaffaqiyatli ishtirok etadi. A.o.z. ajdodlari e.av. IV-VI asr. arab zotlarining shakllanishida katta rol o'ynagan. Keyinchalik trakenensk, qorabog', don, oryol va boshqa nasldor otlarni ko'paytirishda foydalanilgan. Rasmga q.



**Axaltekinsk ot zoti.**

# B


**BAGGI** (ingl. buggy) - sport aravachasi, fayton.

**BAZA** (frans. base, yunon. basis), 1) asos, negiz, poydevor, nimanidir asosi; arxitekturada - poydevor, ustun poydevori yoki ustun. 2) ta'minot yoki xizmat ko'rsatish b-n shug'ullanuvchi, tashkilot (mas., sport baza). 3) Ombor.


**BAYROQ** – davlatning ajratib turuvchi rasmiy belgisi bo'lib, uning ta'rifi qonunda belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashining XII chaqiriq VII sessiyasida 1991 y. 18 noyabrdan tasdiqlangan.

**BAYTAR NAZORATI** (veterinarniy reglament) – hayvon, parrandalar ishtirokida o'tkaziladigan musobaqalarda o'rnatilgan tartib qoida.

**BANKET** (ingl. basket - tuproq devor) - ot sakrab o'tishi kerak bo'lgan sun'iy to'siq. Uning balandligi 175 sm gacha, kengligi 350-450 sm va uzunligi 3,5-14 m gacha bo'lgan tuproqli to'siq. Rasmga q.



**BASKYUL** (fr. bascule - arg'imchoq) - to'siqni yengib o'tishda bo'ylama to'lqinsimon bo'yin va otlar tanasining egilishi (bo'rtib chiqish). Oyoqlarning egilishiga yordam beradi va shuning uchun sakrash uchun katta ahamiyatga ega. Rasmga q.



**BEREYTOR** (nem. bereiter) – 1) chavandozlikka o'rgatuvchi va otlarni yonlab o'tuvchi, mutaxassis. 2) Sirkda ot o'ynatuvchilar yordamchisi.

**BIDARKA** - Rossianing yevropa qismining janubiy hududlarida keng tarqalgan ressorsiz ikki g'ildirakli yengil arava.

**BILLIARD** – ot sportida to'siq turi.


**BICh** – uzun qamchi, darra. Ot sportida, hayvonlarni ma'lum malaka va harakatlarni bajarishga o'rgatishda ishlatiladi. Uloqda, qiz quvdida va olomon poygada ham ishlatiladi.

**BRIDJI** (ingl. breeches) - maxsus etik shim.

**BRIChKA** - to'rt g'ildirakli arava.

## V

**VALTRAP** (ital. qualdrappa) - otning egar ostiga yopiladigan movut yoki baxmal choyshab. Rasmga q.



**VATAN** – bu har bir Xalqning, millatning, har bir insonning o‘tmishi, buguni, kelajagidir.

**VATANPARVAR** – mudofaaga kumaklashuvchi tashkilot. Yosh ishchi va hizmatchilar, O‘zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari safiga chaqiriluvchilar Vatanparvar kurslarida avtomashina haydovchisi, traktorchi, mototsiklchi, radist-operator kabi kasblarga ega bo‘ladilar.

**VATANPARVARLIK** – Vatan tushunchalari inson qalbidagi iymon-etiqod, millat manfaatlari va g‘ururi uchun fidoiylikdir.

**VATANPARVARLIK tarbiyasi** – yoshlarni, xalqimiz qaxramona o‘tmishini, ulug‘ ajdodlarimiz va xalqimiz qaxramona shtmishini, jasur o‘g‘lonlari qaxramonliklari va ular hayotiga tayanib, ularda Vatanga cheksiz muxabbat, Ona yurt dushmanlariga nafrat ruhida tarbiyalashni, o‘z Prezidenti va xalqiga xamisha sadoqatli bo‘lib qolish kabi xususiyatlarni shakllantirish demakdir.

**VATANPARVARLIK tuyg‘usi** – insonning kindik qoni to‘kilgan Ona zamin, uni kamolot sari yetaklagan, hayotga ma’no-mazmun baxsh etgan tabarruk maskanni muqaddas bilib, kerak bo‘lsa uning mustakilligi uchun jon fido qilishga tayyor bo‘lgan shaxsning ijtimoiy-ruhiy holatini ifodalovchi faoliyatdir.

**VOLT** (frans. volte - burilish) - otning manejda diametri 6 m bo‘lgan aylana bo‘ylab bir aylanib chiqishi, yurish mashqi.


**VIYEZDKA** – 1) otni aravada ishlashga o‘rgatish. 2) Ot sporti turi (otda yurish oliy maktabi),  $20 \times 40$  yoki  $20 \times 60$  m (5-12 daq.) maydonda otni har xil yurishida boshqarish mahorati bo‘yicha musobaqalar. 1912 y. Olimpiyada o‘yinlari dasturiga kiritilgan, 1966 y. jahon championatlari o‘tkaziladi.



**GABRONEMATOZ** (yunon. Habronematosis) – otlar, eshaklar va xachirlarning gjija kasalligi. Bunga lichinkalarini pashshalar olib boradigan Habronema turiga mansub mayda (7-25 mm uzunlikdagi) nematodalari sabab

bo‘ladi. Ular asosan oshqozonda parazitlik qilib, surunkali yallig‘lanishni keltirib chiqaradi - gastroenterit, bu otlarning holati va ish faoliyatini pasaytiradi. Lichinkalar terining yaralariga o‘rnashib olgandan so‘ng, odatda qishga qadar davolaydigan yozgi yaralar, turli o‘lchamdagisi va shakldagi yaralar (ko‘pincha bo‘yin, orqa va oyoqlarda) paydo bo‘ladi. Yaralardan lichinkalarni qon oqimi b-n o‘pkaga yetkazish mumkin, bu yerda tugunli jarohatlar paydo bo‘ladi.

**GALOP** (frans. galop) – otni sakrashga o‘xshash harakatlari; otni yurish turidan biri. Ot qadamining uzunligiga qarab qisqa, oddiy (kenter) va tez (karer) G. lar farqlanadi. Rasmga q.



**Galop otlar harakati sxemasi**

**GIT I** (ingl. heat) – Ispaniyada yirik sovrin uchun otlarning 1600 m li masofaga borib kelishi; velo va motosportda ma’lum masofaga (joyidan, yurib) yolg‘iz yurish.

**GIT II** 1. Ot choptirish sinovlarida yo‘rtoqi otlarni bir martalik masofani bosib o‘tishi. 2. Bir martalik to‘sqliarga osha o‘tish parkur musobaqalarining norasmiy nomi (mas., Kubok uchun).

# D

**DVUKOLKA** - bitta ot qo'shilgan ikki kishi sig'adigan joyi bo'lgan, bir o'qli, ressorli, ikki g'ildirakli yengil arava. Yuk ko'tarish hajmi taxminan 180 kg.

**DJIGITOVKA** (turk. djigit – mohir va jasur chavandoz) – *Chavandozlik* q.

**DERBI** (ingl. derby) – 2400 m masofaga 3 yoshli zotdor otlarning ippodrom musobaqalari. 1778 y. Angliya lordi Derbi (shu yerdan nomi ham kelib chiqqan) birinchi bo'lib tashkillashtirgan. 4 yoshli yo'rtoqi otlar uchun eng muhim mavsumiy musobaqa, Germaniyada to'siqlarni yengib o'tish bo'yicha eng yirik musobaqa D. deb nomlanadi.

**DISKVALIFIKATSIYa** - sportchini o'yin qoidalarini buzganligi uchun sport musobaqalariga qatnashishdan mahrum qilish. Yana q. *Sportchining sport diskvalifikatsiyasi*.

**DISTANSIYA** (lot. distantia - oraliq, masofa) – oraliq, biror-bir narsa orasidagi masofa ("masofani saqlash", "qisqa masofaga yugurish").

**DOG-KART** - bir yoki ikki o'qli yengil aravaga bir yoki ketma-ket qo'shilgan otlar.

**DOPING** (ingl. doping - dope – narkotik berish) – sport natijalarini yaxshilash uchun organizmni vaqtincha psixologik va jismonan ko'chaytiruvchi vosita (man etilgan dori – darmonlar). Xalqaro olimpiya qo'mitasi 1967 y. sportda D. man etish va musobaqalarda D. nazoratini tashkil qilish to'g'risida qaror qabul qildi. Ot sportida ham (boshqa sport turlaridek) D. , qat'iyan man qilingan. Yana *Doping nazorati* q.

**DOPING nazorati** – man etilgai dori-darmonlarni (dopinglarni) Xalqaro va boshqa yirik musobaqalarda barcha otlarni maxsus komisiya tekshiruvidan o'tkaziladi. Start oldidan D. aniqlangan otlar musobaqaga qo'yilmaydi. Agar musobaqa yakunidan so'ng sportchi ishtirok etgan otta D. aniqlansa sportchini musobaqada qatnashishdan mahrum etiladi. 1972 y.dan Olimpiyada o'yinlarining


barcha dasturlarida, keyinchalik jahon championatlarida o‘tkazish Xalqaro olimpiya qo‘mitasi va Xalqaro sport uyushmalari nizomiga kiritilgan.



**JOKEY** (ingl. jockey) – 1) ot poygalarida mohir chavandoz; otlarga mashq o‘tkazish bo‘yicha mutahassis, murabbiy. 2) Sirkda egarlanmagan ot ustida murakkab akrobatik mashqlarni bajaruvchi shaxs.



**ZAMONAVIY BEShKURASH** – sport ko‘pkurash musobaqalari ot ustida yurish, qilichbozlik, to‘pponchadan o‘q otish, suzish va kross yugurishdan iborat. Har bir tur bo‘yicha chiqishlar ochkolarda baholanadi (maxsus jadval asosida); jami to‘plagan ochkolar soni eng yaxshi bo‘lgan sportchi g‘olib hisoblanadi. XIX a.ning ikkinchi yarmida Shvesiyada asos solingan. 1948 y. Xalqaro zamonaviy beshkurash va biatlon ittifoqi (UIPMB) Londondagi XIV Olimpiada o‘yinlarida tashkil topgan. 102 ta milliy (2006) federatsiyalarni birlashtiradi. 1912 y. Olimpiyada, 2002 y. Osiyo o‘yinlari dasturiga kiritilgan, 1949 y. dan jahon championatlari o‘tkaziladi (1981 y.dan ayollar o‘rtasida). O‘zbekiston beshkurash federatsiyasi 1994 y. tashkil topgan.




**IKKITALI TO‘SIQ** (dvoynoy zabor) – ot sportida to‘siq turi.

**IPPODROM** (yunon. hippos – ot va dromos - yugurish, yugurish uchun joy) – otlar ko‘rgazmasi, ot sporti musobaqalarini o‘tkazish uchun majmuali inshoot.

**YILQICHLIK** – otlarni qo‘paytirish, chorvachilik tarmog‘i. Asosiy yo‘nalishlari: zotli, sport, kamyob sut-go‘sht yetishtirish.


**YO‘RTIB ChOPADIGAN OTLAR SINOVI** – ot sporti turi, ot aravaga qo‘shilgan, bir xil yoshdagi otlarning bitta masofaga chopishi, shu b-n birga otning chopqirligiga qarab o‘rnatilgan masofada olinadigan sinovlar nazarda tutilgan. Ot aravada asosan mohir chavandoz sportchilar mashg‘ul bo‘ladilar (rasmga q.). Birinchi ot va ikki g‘ildirakli ot aravalarda kimo‘zarga chopish poygalari XVII a.da Buyuk Britaniyada o‘tkazilgan (zotli otlarda). Y. ch. o. s.larida faqat yo‘rtoqi otlar (mas., orlov yo‘rtoqilari, ingliz-norman zotli yo‘rtoqi otlari, amerika yo‘rtoqi otlari va b.) zoti ishtirok etadi. Rasmga q.



**Yo‘rtib chopadigan otlar**

**YO‘RTIB ChOPISh** (рыс) – ot harakatini olg‘a ilgarilab borish turi (yuqori sur’atda chopishning ikki barovar tezlashtirish), unda diagonal bo‘ylab joylashgan ikkita oyoqni bir vaqtda namoyon etadi. Y. ch. turiga (qisqaroq, ta’biy, katta-katta qadam tashlab chopish) qarab harakatlanish tezligi 9-50 km/s, qadamlar uzunligi 2-6,7 m. bo‘lishi kerak.

**YO‘RTOQI OT** (рысак) – asosan yo‘rtib chopadigan (engil aravaga qo‘shiladigan) otlarning umumiyl nomi. Rasmga q.



### Yo'rtoqi ot yurishi shartli tasviri

**YO'RG'ALASH yurish** (inoxod) – ot sportida allyur otlari, bunda u oyoqlarini navbatma-navbat gohida chapga, gohida o'nga ko'taradi va tushuradi.

**IPPOLOGIYa** (yunon. hippos – ot va logos - talim berish) - Qadimgi zamonlardan beri mavjud bo'lgan ot ilm, fani. G. otning kelib chiqishi, zotlarning shakllanishi, anatomiyasi va fiziologiyasi, otlarni ko'paytirish va yosh zotni boqish, sinovlar va ot sportlari, boqish va otlarning asosiy gigienasi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

**IPPOTERAPIYa (reytterapiya)** - ot minishda foydalanish uchun neyrofiziologiyaga asoslangan holda fizioterapevtiv davolash.


## K

**KAVALKADA** (frans. cavalcade) – chavandozlarning guruh bo'lib yurishi.

**KAMZOL** (nem. kamisol) - ot choptirish sinovlarida jokey va chavandozlar uchun oddiy kalta kamzul yoki yorqin rangdagi ko'ylak.

**KARETA** (ital. carretta) - bir ot qo'shiladigan ikki g'ildirakli yengil arava.

**KAPSYuL** - otlarning og'zini keng ochishiga yo'l qo'ymaydigan vosita. Otlarni tarbiya qilish, uni boshqarishni osonlashtiradi. Yo'rtoqi va salt otlarni minish uchun majmua yugarlar kiritilgan. Kuchli tortadigan otlar uchun burni kichik tugunlari bo'lgan qattiq arqonli K.dan foydalaniladi. Rasmga q.



**Kapsullar.** a- oddiy; b – gannovercha; v-meksikacha; g- irlandcha.

**KARER** - otning eng tez yugurishi, chopishi, yelishi.

**KATTA PARDUBIS STIPL-ChEZI** - Yevropa qit’asidagi eng qiyin raqobat. U 1875 yildan beri Chexiya Respublikasidagi Pardubis ot choparida 6900 m masofaga 30 ta to’siqdan o’tiladigan musobaqa.

**KAChALKA** - ikki g‘ildirakli poyga aravasining avvalgi nomi.

**KONKUR, konkur-ippik** (frans. Concours Hippique - ot sporti musobaqasi) - keng ma’noda har qanday ot sporti musobaqasi. Mamlakatimizda - turli to’siqlarni engib o’tish bo‘yicha musobaqalar (6 dan 18 gacha).

**KORDA** – otni aylana bo‘ylab yurishi uchun mo‘ljallangan uzunligi 8-10 m va kengligi 15-20 mm bo‘lgan uzun tizgin.

**KROSS** (ingl. cross - kesib o‘tmoq, aylanib chiqmoq) - past-balandlik joylardagi to’siqlardan sakrab kesib o’tish.

**KO‘PKARI** – markaziy Osiyo (kozoq, qirg‘iz, tojik, o‘zbek va qoraraqolpoq) xalqlarining milliy ot sport o‘yini. K. “Bo‘ri” degan ma’ni anglatadi. Qadimda ko‘chmanchilar o‘yin ashyosi sifatida jangchini olganlar, ular eng abjir otlarida uni


qo‘vlaganlar. Keyinchalik jangchi o‘rniga uloq tanasi almashtirilgan. Maqsad – uloq tanasini yerdan ko‘tarib o‘z darvozasiga olib borish. O‘yinda qoyidasi – o‘yinda har birida 5 ta kishida (1 ta zahirada) iborat ikkita jamoa ishtirok etadi. O‘yin maydoni – uzunligi 400-500 m va kengligi 20-30 m (odatda tribunali otchopar inshootining ot choptirish yo‘lkasida). Maydon yon tarafiga darvoza vazifasini bajaruvchi ikkita bayroq o‘rnataladi. O‘yin boshlanishidan oldin uloq tanasini qo‘yish uchun maydon markaziga diam. 3 m aylana chiziladi. Hakam ishorasi b-n jamoalar markaziy aylana chizig‘idan 10 m masofaga chetga chiqib, bir qator saflanishlari kerak. O‘yin 15 daq davom etadi. Agar durrang holati kuzatilsa yana 15 daq qo‘shib beriladi. O‘yin qoyidasi bo‘zilgan taqdirda uloqchi (uloq tanasini olgan chavandoz) yon chiziq hakami tomonidan aut belgilanadi va o‘yin qoidasi bo‘zilgan joyning qarshisidan o‘yin qaytatdan boshlanadi. Intizomsizlik qilgan, o‘yin qoyidasi bo‘zgan chavandoz yon hakam tomonidan 5 daq ga o‘yindan chetlashtiriladi (almashtirish mumkin emas). Rasmga q.



## L

**LASSO** – hayvonlarni tutish uchun tashlanadigan sirtmoqli arqon, rodeo sport turida qo‘llaniladi.

**LANDO** (frans. landau) - XIX asr. keng tarqalgan to‘rt g‘ildirakli yumshoq resorli, yengil soyabonli, to‘rt kishilik buklama arava.



**NO‘XTA** (nedouzdok) - otni jabduqda ushlab turish (chumbur yordamida) va otxonadan olib chiqish uchun mo‘ljallangan bitsiz jilov, barqaror ishlataladigan buyum.



**MADHIYa** (yunon. hymnos) – tantanali qo‘sinq. Vatan, davlat, ulurning qahramonlari, tarixiy voqealarni sharoflovchi she’riy-musiqiy asar hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi 1992 y. 10 dekabrda qabul qilingan (O‘zbekiston Xalq shoiri A. Oripov she’ri, M. Burxonov musiqasi). O‘zbekiston Respublikasi hududida respublika va xalqaro musobaqalarni o‘tkazish vaqtida O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi manfaatdor tashkilotlar b-n kelishib turib, belgilab qo‘yadigan koidagi muofiq ijro etiladi.

**MAKTABDAN TAShQARI TA’LIM** – uzluksiz ta’limning bir turi bo‘lib, bolalar va o‘smirlarning ta’limga bo‘lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab – ehtiyojlarini qondirish, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga, yoshlarning ma’naviy barkamolligini ta’minalashga xizmat qiladi. Maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlariga bolalar va o‘smirlar sport maktabi, ijodiyot uylari va b. kiradi.

**MALAKA** – avtomatlashgan, odatdagи muayyan usul bilan bexato bajariladigan harakatdir.

**MANEJ** (frans. manege) – 1) ot o‘rgatiladigan yoki chavandozlar va otliq askarlar mashq o‘tkazadigan maxsus usti ochiq yoki yopiq joy. Odatda 20×40 m.

yoki  $20 \times 60$  m. (minimal  $10 \times 20$  m.) o‘lchamdagи to‘rtburchak ko‘rinishda bo‘ladi.

2) Sirk zali o‘rtasida aylana shaklida ishlangan tomosha maydoni, arena.

**MARRA** (finish) (ingl. finish) – musobaqa, masofaning so‘ngi qismi, tezlikka oid musobaqa masofalarining ohirgi tugash joyi.

**MAXSUS JISMONIY TAYYOR GARLIK** – texnik uslublarni tezroq egallashda, jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan jarayon.


**MAXSUS CHIDAMILLIK** – sportchining musobaqa bellashuvi davomida turli xususiyatdagi harakatlar va amallarni har xil kuchlanishlar bilan hamda gavdaning turli holatlarida yuqori sur’atda bajarish qobiliyati orqali tavsiflanadi.

**MAXSUS EGILUVChANLIK** – sportchining texnik-taktik xususiyatlarga tegishli bo‘g‘imlar va yo‘nalishlarda harakatlarni katta amplituda bilan bajarish qobiliyati.

**MIL** (ingl. mil - ming), Angliyada qabul qilingan uzunlik o‘lchov tizimi. 1 mil =  $1/1000$  dyuymga = 25,4 mkm teng.

**MILLIY (liverpul) KATTA STIPL-CHEZ** (ingl. Grand National steeplechase) - ot sporti bo‘yicha dunyodagi eng qiyin musobaqalardan biri. 1836 yildan beri har yili Liverpulda Entri otchoparida o‘ynaladi. 32 ta sakrash bilan 4 mil 856 yard (7218 m) masofa.

**MUNDShTUK** (nem. Mundstück) – otda yurishda suvluqqa qo‘sishma qo‘llanadigan, yuganning ot og‘zidagi temir qismi. Rasmga q.



**Mundshtukli yugan:** 1 – gardan tasmasi; 2 – lunjabog‘ tasmasi; 3 – qanshar; 4 – peshanabog‘; 5 – iyak tasmasi; 6 – Trenzel’; 7 – mundshtuk; 8 – mundshtuk zanjirchasi; 9 – mundshtuk zanjiri qayrilma qozig‘i; 10 – suvliq; 11 – do‘g‘acha.

**MUSOBAQA TURLARI** (vidy sorevnovaniy) – oldinga qo‘yilgan vazifalarga qarab musobaqalar qo‘yidagi turlarga bo‘linadi: birinchiliklar; sovrin (kubok) musobaqalari; qisqartirilgan, baravarlashtirilgan, daraja (razryad) va saralash musobaqalari; o‘rtoqlik uchrashuvlari; xalqaro uchrashuvlar va b.

**MUSOBAQA YUKLAMASI** – musobaqa faoliyati hajmi va shiddatining son miqdori.

**MUSOBAQA O‘TKAZISHNING ARALASH USULI** – usulda musobaqa o‘tkazilganda bitta musobaqaning o‘zida ham doiraviy usulni, ham o‘yindan chiqib ketish usuli birga qo‘sib olib boriladi. A. u. musobaqalarni o‘tkazishni yengillashtiradi (qisqa vaqt ichida ko‘p sonli sportchilar (jamoa) qatnashishiga imkoniyat bo‘ladi).

**MUSOBAQA O‘TKAZISHNING DOIRAVIY USULI** – bunda musobaqaning har bir ishtirokchi (jamoa) boshqa ishtirokchilarning (jamoalarning) har biri b-n uchrashib chiqadi. Bu usulda o‘tkaziladigan musobaqalar ishtirokchilarning (jamoa) qiyosiy kuchini aniqlashda eng samarali usul hisoblanadi. Uchrashuv natijalari (g‘alaba 2 ochko, durrang 1 ochko, mag‘lubiyat 0 ochko) ochkolar b-n baholanadi, eng ko‘p ochko to‘plagan ishtirokchi (jamoa) g‘olib hisoblanadi. Mas., o‘yinda to‘rta jamoa ishtirok etayapti, ochkolar yuqorida keltirilgan baholash tizimi bo‘yicha o‘yin yakunlari qo‘yidagi jadvalda keltirilgan:

Ishtirokchi	A	B	V	G	Ochkolar	O‘rin
<b>A</b>	×	0	0	0	0	4
<b>B</b>	2	×	2	2	5	1
<b>V</b>	2	0	×	2	4	2
<b>G</b>	2	0	0	×	2	3


## **MUSOBAQA O'TKAZISHNING O'YINDAN CHIQIB KETISH USULI**

– bunda musobaqada yutqazgan sportsi (jamoa) keyingi musobaqalarga qatnashmay, o'yindan chiqib ketadi. Natijada biron ta ham uchrashuvda mag'lub bo'limgan sportchi (jamoa) g'olib chiqadi. Bu usulda musobaqalar qisqa vaqt ichida ko'p sonli sportchilar (jamoa) qatnashishiga imkoniyat bo'ladi.

### **Musobaqa o'tkazishning o'yindan chiqib ketish usulining ko'rinishi.**

**MUSOBAQALASHISH JARAYONI** – musobaqalashish vaziyatlarining izchillik bilan almashinib turishi tushuniladi.

**MUSOBAQALASHUV vaziyati** – sportchining joriy holati hamda navbatdagi musobaqa vaqtি bo'ladigan paytga qadar o'zining imkoni boricha tuta olgan “holatlar” ning yig‘indisidir.



**OKSER** – ot sportida to'siq turi.

**OMNIBUS** (yunon. omnibus – hamma uchun) – shaharlar va aholi turar joylariga ma'lum bir yo'nalish bo'ylab harakatlanadigan ko'p o'rini ot aravali kirakash. Shiroko ispolzovalsyva v veke osobenno v Anglii i vo Fransii. U ayniqsa XIX asr. Angliya va Fransiyada keng qo'llanilgan.

**OT ARAVALI POYGA musobaqalari** - eramizdan avvalgi 393 y.da yunon va rimliklar tomonidan kiritilgan.


**OT ZAVODI** (konniy zavod) – ot zotini yaxshilash va ko'paytirish, zotli otlarni yetishtirish b-n shug'ullanadigan korxona. Yetishtirilgan otlarning bir qismi ot sportiga, eksport va boshqa odatiy maqsadlar uchun mo'ljalangan.

**OT BOG'LAYDIGAN QOZIQ** (konovyaz) - otxona tashqarisida ot ni bog'lab qo'yish uchun yerga qazib o'rnatilgan ustunlarga gorizontal o'rnatilgan yog'och to'sin yoki ustun. Har bir ot boshiga balandligi 100-120 sm, uzunligi 150 sm bo'ladi.

**OT SPORTI** – otda yurish musobaqalari. Asosiy turlari: aravaga o‘rgatish; konkur-ippik (to‘sinqni yengib o‘tish); uchkurash – manejda otda yurish (allyura (otning biror hil yurishi) mashqlari asosida), dala sinovlari (stipl-cheyz, kross, yo‘llarda harakatlanish) va to‘sqliarni yengib o‘tish; choptirish; otda ov qilish; voltijirovka (chopqir ot ustida qilinadigan chavondozlik mashqlari) va b. 1900 y. Olimpiyada, 1994 y. Osiyo o‘yinlari dasturiga kiritilgan. 1953 y.dan jahon va Yevropa championatlari o‘tkaziladi. 1921 y. Xalqaro ot sporti federatsiyasi (FEI) tashkil topdi va hozirda 134 ta milliy (2006) federatsiyalarini birlashtiradi. 1993 y. O‘zbekiston ot sporti federatsiyasi tuzilgan. 1997 y.dan O‘zbekiston milliy terma jamoasi mustaqil ravishda xalqaro musobaqalarda qatnashib keladi. O‘zbekistonlik M. Ismailov, V. Dvoryanikov, Yu. Kovshov, A. Tankovlar katta shuhrat qozonganlar.

**OT SPORTI MAKTABI** - ot sporti klublari va seksiya ishlari b-n bir qatorda ot sportini tashkil etishning asosiy shakli hisoblanadi. O.s.m. ot minishni o‘rgatadi, sportchilar bilan ot sportining har xil turlari bo‘yicha mashg‘ulotlar olib boradi, kiyinish va sport otlarini tayyorlash va ot sporti musobaqalarini tashkil qiladi.

**OT SPORTI to‘sinq turlari** – to‘sqliar qo‘yidagicha bo‘ladi: baland va tik ko‘tarilgan (mas., xodachalardan qo‘rilgan g‘ovlar, toshdan qilingan devorlar, panjarasimon to‘sqliar va b); baland-keng-statsionatlar, okserlar va b.; keng-zovurlar. 2 yoki 3 aloxida to‘siqdan iborat, otlar undan 1 yoki 2 sur’atda oshib o‘tiladigan to‘sqliar tizimli deb yuritiladi. Rasmga q.



**To'siqlar:** 1 – g'ov; 2 – juft hodalar (okser); 3 – qiya bo'ta g'ov; 4 – devor; 5 – xodachalardan qo'rilgan g'ov.


**OT POLOSI** (konnoe polo) – sportchilar ot ustida yog'och to'qmoq (bita) b-n to'pni darvozaga yoki xalqaga tashlashni amalga oshiradigan jamoaviy o'yin (rasmga q.). O'yinda 2 ta jamoa 4 tadan o'yinchi (1 ta darvozabon, 3 ta hujumchi va himoyachi) ishtirok etadi. O'yin 8 davrdan iborat (har bir davr 7,5 daqiqa). O'yin maydoni uzunligi 275 m, kengligi 150 m, darvoza kengligi 7 m. Yog'och to'qmoq uzunligi 1,10 m, to'p diam.i 8 sm, otlar balandligi 1,48 m dan oshmasligi kerak. Hindistondan 1889 y. da Yevropaga kirib kelgan. 1908, 1920, 1924 va 1936 yillarda O. p. musobaqalari Olimpiyada o'yinlari dasturiga kirgan.



**OT YUGANI** – mundshtukli va trenzelli bo‘ladi. Yana *Mundshuk* q.

**OTDA OV QILISH** – ot sporti turi, oldindan belgilangan yo‘nalish bo‘yicha O. o. q. o‘tkaziladi. Asosan “tulki dumি uchun ovlар” va parfors ovlари keng tarqalgan. Tulki dumи uchun ov qilish vaqtida “maydon” qatnashadigan ishtirokchilarning barchasi chavandozlardan iborat bo‘lib, tulki dumini chap yelkasiga maxkamlab olgan oldinda boruvchi chavandozni ta’qib etadilar. Birinchi bo‘lib, tulki dumini o‘ng qo‘li b-n tortib olgan chavandoz g‘olib hisoblanadi.

**OTLAR I** – otlar oilasining toq tuyeqli hayvonlar turkumiga kiradi. Tana o‘zunligi 2,8 m gacha, balandligi 1,6 m gacha bo‘ladi. Osiyo va Afrikada (Evropada qirib tashlangan) 8 turdagи yovvoyi otlar bor. Prjeval otlari, yovvoyi eshshak, tog‘ zebrasi, Grevi zebrasi va b. Xalqaro tabiatni va tabiiy resurslarni asrash ittifoqi Qizil kitobiga kiritilgin. Ot tahminan 5-6 ming yil avval Osiyoda honakilashtirilgan va hozirda 200 dan ortiq zotlari mavjud. Yana q. *Yilqichilik*.



**Otning tuzilishi:** 1. peshana yoli. 2. burun orqasi. 3. burun teshigi. 4. tepa lab-lunji. 5. pastki lab-lunji. 6. suvluq zanjiri o‘tadigan tanglay. 7. pastki jag‘ qirrasi. 8. gardan. 9. bo‘yin o‘rkachi. 10. yag‘rin. 11. orqa. 12. bel. 13. sag‘ri. 14. dumning ostki qismi. 15. yonbosh. 16. biqin. 17. yelka. 18. oldingi oyoqning yelkadan tizzagacha bo‘lgan qismi. 19. oldingi oyoq tizza bo‘g‘imi. 20. oldingi oyoq boldiri. 21. tuyeq usti bo‘g‘in suyagi. 22. tuyeq tepa qirrasi. 23. tuyeq. 24. chov. 25. tizza.

26. do‘mboqcha bo‘rtib chiqqan qismi. 27. tuyoq usti bo‘g‘in suyagining egilgan joyi. 28. hakkalab yurish bo‘g‘ini.

**OTLAR II** – ot sportida zotli otlar va Angliya nasldor otlaridan foydalaniladi. Poygalarda yuqori chopqirlikka erishish maqsadida reja asosida o‘tkazililgan tanlovlardan yordamida tanlab olingan otlarni zotdor otlar deb ataladi. Angliya nasldor otlari otta yurish, kajava va ish kuchi sifatida foydalanadi. Zotdor otlardan asosan minish va uchkurash musobaqalarida foydalaniladi. Xalqaro uchkurash musobaqalarida zotli otlarni sakrovchanligi, chidamliligi va shu b-n birga chopqirligi asosiy sabab hisoblanadi. Rasmga q.



### **Angliya nasldor oti**

**OTChOPAR** (ippodrom) (yunon. hippodromos - hippos - ot va dromos - yugurish, yugurish uchun joy), ot sporti bo‘yicha musobaqalar yo‘rtoqi (rysistlyi) va poygachi otlarni sinovdan o‘tkazish uchun kompleks inshoot; ularni tashkillashtiruvchi tashkilot. Zamonaviy tipdagisi O. inshootlari Qadimgi Yunon O. laridan andoza olingan. Yo‘laklarining uzunligi odatda 2000 – 3000 m. Asosiy yo‘lak gudron sindirilgan qora tuproq b-n qoplanadi (yo‘rtoqi va poygachi otlarni sinovdan o‘tkazish va mashq yurishlari uchun). Shu b-n birga xaydalgan yerli, yog‘och-tahta qoplamlari (ot minish) ham bo‘ladi. Yugurish yo‘lkasi bo‘rilishlari tashqi tomondan 12-15° ga sal ko‘tarilgan bo‘ladi. O. maydonida har xil xizmat ko‘rsatish binolari: othona, temirchilik, ko‘chma veterinariya, yechinish honalari mavjud. O.da ba’zan kross bo‘yicha yengil atletika musobaqalari ham o‘tkaziladi. Zamonaviy tipdagisi qo‘yidagi: Leksington (AQSh), Nyu-Market, Epsomsk (Buyuk Britaniya), Vensennsk, Lonshan (Fransiya), Pardubisk (Chexoslovakiya), Madrid

(Ispaniya), Moskova (Rossiya Federatsiyasi) kabi O. ma'lum va mashhur. Yana q. *Toshkent otchopari*.

**OTXONA** – otlarni saqlashda asosiy vazifani bajaradigan joy. O qo'rilmalishni, shamollatishni, tozaligi otlarni saqlash maxsus qoidalariga javob berishi kerak. Otlar uchun asosan yaxshi yoritilganlik va toza xavo o'zini yaxshi xis etishiga ta'sir ko'rsatadi. Otlarni doimo yaxshi parvarish qilish, ularni sog'ligini va ish qobiliyatini saqlab turadi. Undan tashqari to'g'ri parvarish qilish, otlarga yaxshi muomilada bo'lish va otta yurish qoidalariga javob berish ham kiradi. Otni kunlik yem-xashak miqdori (ratsion) taxminan qirqilgan somon aralashmasiga qo'shilgan 5 kg suli va tarkiban shuncha hajmdagi pichandan tashkil topadi. Otni kuniga 3 marta boqiladi (ertalab, kunduzi va kech qurun).

## P

**PALISAD** (ot frans. palissade - qoziqdevor, to'siq) - taxtadan yasalgan devor ko'rinishidagi vertikal to'siq. Birin ketin joylashtirilgan ikkita P.lar yuqori qismining to'siq hosil qiladi.

**PARKUR** – yengib o'tish uchun musobaqa maydonida joylashgan to'siqlar majmuasi. Chavandoz belgilangan yo'naliш bo'ylab P.ni bajarishi kerak, belgilangan vaqt ichida minimal xatolarga yo'l qo'yishi kerak.

**PASSAJ** (frans. passage -o'tish) – otta yurish turlaridan biri – otning oyoqlarini yuqoriga ko'tarib o'rtacha qadamlar b-n yurish.

**POLO** (ingl. polo) – maydonda ( $274 \times 182$  m) unchalik katta bo'lмаган, maxsus minishga o'rgatilgan poni-polo otlariga minib olib, yog'och to'p (diametri 8 sm, og'irligi 120-135 g) va chavg'onlarda o'yinaladigan jamoaviy sport o'yini. O'yin ko'p asrlar oldin Markaziy Osiyoning ko'chmanchi xalqlarida paydo bo'lgan. 1850 y. da ingliz harbiy hizmatchilari Hindistonda zamonaviy ko'rinishga olib kelganlar va 1871 y. Buyuk Britaniyaga kirib kelgan. AQSh, Italiya,

Argentina, Meksikada ommalashgan. 1900, 1908, 1920-24, 1936 yillarda Olimpiyada o‘yinlari dasturiga kiritilgan.

# R

**REPRIZA** (frans. reprise, reprendre – qatadan boshlamoq, takrorlash), 1) musiqa asari qaysidir qismini takrorlash (mas., sonata shaklida). 2) Sirk va estradada – og‘zaki yoki pantomimik komedik ko‘rinish (ba’zan hajviy, latifa). 3) Sirkda, ot sporti musobaqasida – otni avval bajargan allyur (bir hilda) yurishi; bir qator mohirlilik va epchillik b-n tez bajariladigan harakatlar ketma-ketligi. 4) Qilichbozlikda takrорiy (ikkinchi) zarba.

**RODEO** (isp. rodeo, rodear so‘zidan – tevaragida joylashgan bo‘lmoq) – yovvoyi otni bo‘ysundirish, bo‘ysundirilmagan otda egarsiz yurish, buqani arqon yordamida tutish, buqani tutish uchun tashlanadigan sirtmoqli arqon (lasso) yordamida bo‘ysundirish va yovvoyi buqa b-n olishish, yovvoyi buqani minib yurishlardan iborat, kovboylar sport musobaqasi (meksilik va amerikalik kovboylar (otliq podachi) o‘rtasida vujudga kelgan). 1883 y. R. bo‘yicha birinchi rasmiy ochiq sport musobaqlari o‘tkazilgan (Texas shahrining Pekos okrugida). AQSh, Kanada, Avstraliya va b. Mamlakatlarda keng tarqalgan.


**RUHIY TAYYORGARLIK** – 1) aniq bir sport turiga zid ruhiy jarayonlarni va shaxs xususiyatlarini shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayon. 2) ma’naviy, iroda va sport turiga o‘ziga xos xususiyatlariga mos bo‘lgan hamda musobaqa faoliyatida yuqori darajadagi ishonchlilikni ta’minlashga qodir ruhiy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan pedagogik jarayon. 3) ruhiy-pedagogik tadbirlar va sportchilar faoliyati hamda hayotiga muvofiq sharoitlar yig‘indisi.

# S

**SANE** - ot sport o‘yini. Markaziy Osiyoda taraqqiy etgan. S. o‘yini chavandozdan ot egarida mustahkam turishni, katta jismoniy kuch va otni

mohirona boshqarish b-n birga epchillikni talab etadi. Musobaqalar jamoaviy va shaxsiy o'tkazilishi mumkin. Musobaqlarda 18 yoshdan kichik bo'limgan chavandozlar ishtirok etadilar. Vazn toifalari: yengil vazn toifasi 65 kg gacha; o'rtalazn toifasi 80 kg gacha; og'ir vazn toifasi 80 kg va undan yuqori. Otlar tezkor, abjir, ko'rakam, mustahkam, mahkam oyoqlarga ega bo'lishi kerak.

**START OLISH UCHUN ALOHIDA QUTILAR** (startovye boksy) - poyga otlarini startdan chiqishlari uchun moslama. G'ildirakli umumiy ramkaga metall quvurlardan moslab o'rnatiladi. Musobaqa oldidan traktorga shatakka olgan holda startga shaylanish oldidan olib chiqiladi. Poygachilar S.O.U.A.Q. larga otlarni orqa tomondan minishadi. Start beruvchi buyrug'i b-n barcha S.O.U.A.Q. larining old tomoni bir vaqtning o'zida ochiladi va poygalar boshlanadi, so'ngra ular yo'ldan yon tomonga olinadi. Ushbu qurilma startdan noto'g'ri chiqishlarni deyarli yo'q qildi. Aksariyat otlarni S.O.U.A.Q.lariga kirishni tezda o'rgatib olishadi. Rasmga q.




**Start olish uchun alohida qutilar**

**STASONAT** - ot sportida to'siq turi.

**STIPL-ChEYZ** (ingl. steeplechase) – 1) ot sportida 4 yoshdan katta otlar uchun 4000 – 7000 m masofalarda, o'tish qiyin bo'lgan to'siqlarni (30 tagacha) yengib chopish. 2) Yengil atletikada stadion yo'liasi bo'ylab 3000 m masofaga g'ovlar osha (bittasi suv to'ldirilgan handak yonida) yugurish.

**STOYLO** - ot sport o'yini.

**SUV TO'LDIRILGAN HOVUZ** – uzunligi 9 m., eni 3 m. va chuqurligi 1 m. suv to'ldirilgan to'g'ri burchakli chuqurcha shaklidagi to'siq. Rasmga q.



**Suv to‘ldirilgan hovuz:** 1 – tekkis taxta. 2 – qum.

**SYUR-PAPAX** (otliqlar basketboli) – ot sport o‘yini. Azarbajjonda keng tariqqiy etgan. Chavandozdan epchillik, tezkorlik va otni usta omonlik b-n boshqarishni, aniqlik va katta dovyuraklik talab etadi. O‘yin uzunligi 300-400 m ot choptirish yo‘lkasida o‘tkaziladi. Maydonning boshi va ohiriga 3 m ustunga diam. 50 sm halqa maxkamlanadi. Ustun atrofiga 5 m jarima chizig‘i o‘tkaziladi (ichiga yana bitta 1.5 m).

## T

**TARCHIYA** – ot sport turi, Gruziyada rivojlangan.

**TAQA** - ot tuyog‘ini ishqalanish va sinishidan himoya qilish uchun mix bilan mahkamlangan po‘lat plastinkalar. Ular birinchi marta VIII- IX asr. Fransiyada qo‘llanilgan.

**TOSHKENT OTCHOPARI** – ot sporti bo‘yicha respublika va Xalqaro miqyosdagi musobaqalar, turli marosimlar o‘tkaziladigan, uloq chopiladigan, otlar b-n mashqlar olib boriladigan sport inshooti hisoblanadi. Toshkenda rasmiy ot sporti musobaqalari dastlab XX a. boshlarida o‘tkazilgan. 1976 y. da Respublikada eng yirik O. – Toshkentda qo‘rilgan (1976 y. gacha O. Toshkent shahrining Qo‘yliq mavzesi yaqinida bo‘lgan). Toshkent O. A. Ikromov tumani hududida, maydoni 70 ga, me’morlar: R.U.Asanov, E.I.Gusarovalar tomonidan loyihalashtirilgan. T. O. da chavandozlik, ot poygasi, ot choptirish, yo‘gurtirish,

otlarni sinash va sovutish, mashq qildirish maydonlari, to'siqli yo'laklar, veterinariya lazareti (kasalhon), karantin honalari, hovuz va b. bor. T. O. da musobaqalar, poygalar o'tkazilib turiladi, ot sportiga doir mashqlar bajariladi va boshqa marosimlar o'yushtiriladi. Rasmga q. Yana q. *Otchopar*.



**Toshkent otchopari.**

## U

**UCh KURASh** (troebore) – ot sporti musobaqalaridan biri. Musobaqalar manejda yurish, maydonda va to'siqlardan oshib yurishlar bo'yicha, uch kun davomida tanaffussiz, ketma-ket o'tkaziladi. Musobaqalar birinchi kuni –  $60 \times 20$  m kattalikdagi manejda otda yurish san'ati (asosiy allyurlar, burilishlar, belgilangan tartibda to'xtashlar) bo'yicha, ikkinchi kuni – 23-34 km ga teng 5 xil qiyinchilikdagi yo'lni, to'siqlarni to'xtamay yengib o'tib marraga kelish, uchinchi kuni – qiyin turdag'i to'siqlardan ("Qizil devor", "Ikkitali to'siq", "Okser", "Stasonat", "Fil to'siqlari", "Amsterdam eshikchasi" va b.) o'tish bo'yicha bellashadilar. Qish kunlarida usti yopiq manejda ikki kurash o'tkaziladi (to'siqlardan o'tish bo'yicha musobaqalar o'tkazilmaydi).

# F

**FEI** – Xalqaro ot sporti federatsiyasi (1921 y. asos solingan).

**FEDERATSIYa** (lot. foederatio – ittifoq, uyushma) – 1) mustaqqil davlatlarning birlashuvi asosida tuzilgan yaxlit davlat (mas., yer maydonlari, shtashlar va b.). 2) Xalqaro yoki milliy jamoat tashkiloti (mas., Xalqaro ot sporti federatsiyasi).

**FIL to'sig'i** – ot sportida to'siq turi.

**FINAL** (ital. finale - lot. finis - tamom), xotima, tamomlash, yakun; sport musobaqasida g'olibni aniqlash uchun yakuniy uchrashuv.

**FINISH** (engl. finish) – q. *Marra*.

**FLYaER** – ot sporti musobaqalarida qisqa va o'rta masofalarga eng tez yuguradigan ot.

**FOTOFINISH** – sportchilarning marraga yetib kelish tartibini va natijalarini aniq belgilash maqsadida qo'llaniladi. Musobaqa ishtirokchilarining erishgan natijalarini, qo'lga kiritgan o'rinalarini aniq belgilashda xizmat qiladi. Birinchi XIX a. ohirlarida ot poygalari paytida, oddiy fotokamera yordamida F. sifatida foydalilanilgan. 1912 y. V – Olimpiyada o'yinlarida qo'llanilgan. F. ot poygasi, yengil atletika, chang'i poygalari, konkida yugurish, avtomobil sporti va boshqa tezkorlikka qaratilgan sport turlarida qo'llaniladi.

# X

**XALQARO OT SPORTI FEDERATSIYaSI** (FEI) – 1921 y. tashkil topgan. 134 ta milliy (2006) federatsiyalarni birlashtiradi. (E-mail: info@horsesport.org).

**XORSBOL** – otda regbi va basketbol o'yini texnika elementlaridan tashkil topgan, otda o'ynaladigan jamoaviy o'yin. 1970 y. fransiyalik Jan-Pol Dyupon tomonidan kashf etilgan. X. o'yini  $65 \times 25$  m maydonda  $6 \times 6$  ikki jamoa o'rtasida o'tkaziladi. Maqsad – raqib savatiga ko'proq to'p tushurish. Maydon ikki tomonida

yerdan balandligi 3,5 m ustunga diam. 1 m basketbol savatiga o‘xhash savat o‘rnataladi. To‘p – futbol to‘piga o‘xhash. O‘yin 10 daq. 2 taym (orasida 3 daq. tanaffus beriladi) davom etadi. O‘yin uchun 162 sm dan baland bo‘lmagan, nasldor, chopqir va abjir otlar tanlab olinadi. 1977 y. X. rasmiy o‘yin qoidalari ishlab chiqildi. 1978 y. Fransida birinchi championat o‘tkazildi. 1992 y. birinchi Yevropa championati o‘tkazildi.



**SIRK SAN’ATI** – san’atning chavandozlik, hayvonlarni o‘rgatish, akrobatika, gimnastika, pontomima, masxarabozlik, ekvlibristika kabi o‘yinlarni o‘z ichiga olgan turi.




**CHAVANDOZLIK** – ot sporti turlaridan biri, chopqir ot ustida har xil murakkab mashqlarni bajarish va qilich o‘ynatish. Kavkaz, O‘rta Osiyo, Qozog‘iston xalqlarida keng tarqalgan milliy ot sporti o‘yini.

**CHAVG‘ON** (ozerb. Zovqan) – ot ustida ichi egri tayoq b-n to‘pni urib o‘ynaladigan Ozarbayjon jamoaviy ot sport o‘yini. Jamoaviy o‘yin sifatida er. av. birinchi ming yillikning o‘rtalarida paydo bo‘lgan. Avval Ozarbayjon, O‘rta Osiyo, Eron, Iroq, Turkiya va shularga yaqin mamlakatlarda ommalashgan. Birinchi Ch. musobaqasi tahminan er.av. 600 y. turkman va persiyaliklar o‘rtasida o‘tkazilganligi tarixiy manbalardan ma’lum. Birinchi Ch. o‘yini bo‘yicha xalqaro musobaqalar XII asrda Bog‘dodda o‘tkazilgan. Hindistondan 1889 y. da Yevropaga kirib kelgan va ot polo o‘yini nomi b-n ommalashagan. 1908, 1920, 1924 va 1936 yillarda ot polosi musobaqalari Olimpiyada o‘yinlari dasturiga kirgan. Yana q. *Ot polosi*.



**ShAMBER'ER** – odatda sirkda, manejda hayvon o‘rgatuvchilar ishlata digan uzun qamchi.



**EGAR-JABDUQ** (upryaj, sbruya) – ot, ho‘kkiz, bo‘g‘i, it va boshqa hayvonlarni boshqarish va ishlarda (yuk egari, bo‘ktargi, arava, qishloq xo‘jalik qo‘rollari) ular kuchidan foydalanish uchun moslama. Bir ot qo‘shiladigan do‘g‘adi egar-jabduq xomut, do‘g‘a, tirqish yostiqchali qorinbog‘, tirqish, bel va kukragidan aylantirib bog‘laydigan tasma, jugan va tizgindan tashkil topgan. Egar - miniladigan otning asosiy E. g‘i hisoblanadi.



**QIZIL DEVOR** (krasnaya stena) – ot sportida to‘sinq turi.



**O‘ZBEKISTON OT SPORTI FEDERATSIYaSI** – 1993 y. tashkil topgan. Manzil: 100000, Toshkent shahri, Hamza tumani, Hamza ko‘chasi, 33-uy.

## MUNDARIJA

KIRISH .....
A .....
B .....
V .....
G .....
D .....
E .....
Yo .....
J .....
Z .....
I .....
Y .....
K .....
M .....
N .....
O .....
P .....
R .....
S .....
T .....
U .....
F .....
X .....
S .....
Ch .....
Sh .....
E .....

Yu.....
Ya .....
O' .....
Q .....
G' .....